

Date: 29th May-2025

**OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARDA AKMEOLOGIK
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH**

Tuychiyeva Inoyatxon Ibragimovna

Pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD) professor. FarDU pedagogika kafedrasи
mudiri

Mamajonova Gulnihol G'ulomiddin qizi

Farg'ona davlat universiteti “Pedagogika nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada oliy ta'lif tizimida akmeologik kompetentlikni rivojlantirishni o'rganishga bag'ishlangan. Akmeologiya shaxsning eng yuqori rivojlanish bosqichiga erishish fani hisoblanadi. Shuningdek, Akmeologik kompetentlik talabalarning o'z qobiliyatlarini va salohiyatlarini to'laqonli ravishda ochib berish imkoniyatini beradi. Maqolada talabalarda akmeologik kompetentlikni rivojlantirish ko'rib chiqiladi.

Abstract: This scientific article is devoted to the study of the development of acmeological competence in the higher education system. Acmeology is the science of achieving the highest level of development of the individual. Also, acmeological competence allows students to fully reveal their abilities and potential. The article considers the development of acmeological competence in students.

Аннотация: Данная научная статья посвящена изучению развития акмеологической компетентности в системе высшего образования. Акмеология – это наука о достижении высшего уровня развития личности. Также акмеологическая компетентность позволяет студентам в полной мере раскрыть свои способности и потенциал. В статье рассматривается развитие акмеологической компетентности у студентов.

Kalit so'zlar: Akmeologiya, Kompetentlik, akmeologik yondashuv, pedagog.

Key words: acmeology, competence, acmeological approach, pedagogue.

Ключевые слова: акмеология, компетентность, акмеологический подход, педагог.

Akmeologiya so'zi yunoncha “akme” (cho'qqi, rivojlanish yuksalishi) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, insonning eng yuqori rivojlanish bosqichlarini o'rganadi .Kompetentlik, ya'ni malaka yoki yetarli bilim-ko'nikmaga ega bo'lish, bu tushuncha mutaxassisning professional faoliyatda samarali ishslash qobiliyatini anglatadi.Akmeologiya — bu shaxsning professional va shaxsiy salohiyatini maksimal darajada ochish va rivojlantirishga qaratilgan psixologik-tahliliy yo'nalishdir. Talabalarda akmeologik kompetentlik deganda ularning aqliy, ijtimoiy, motivatsion va refleksiv jihatlari uyg'un rivoji tushuniladi. Oliy ta'lifda bu kompetentlik talabalar o'zini anglashi, mustaqil fikrashi va ijodiy muammolarni hal etishi uchun zarur. Akmeologik kompetentlik — bu g'oyaviy (aksiologik), refleksiv, motivatsion va faoliyatga yo'naltirilgan komponentlar majmuasi hisoblanadi. Akmeologik yondashuvning nazariy va uslubiy

**CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE,
INNOVATION, AND TRANSFORMATION.**
International online conference.

Date: 29th May-2025

asoslarini yaratishda A.A.Bodalev, A.A.Derkach, N.V.Kuzmina, V.N.Maksimova, A.A.Rean, B.G.Ananev, V.N.Tarasova, S.N.Tolstov, N.V.Kuxarev, G.I.Xozainov, O.S.Anisimov kabi olimlarning hissasi kattadir. Akmeologik yondashuvning umumiy uslubiy tamoyillari orasida olimlar (determinizm tamoyili, rivojlanish tamoyili, insonparvarlik tamoyili), maxsus metodologik tamoyillar (subyekt faoliyati tamoyili, hayot faoliyati tamoyili, potensialni aktuallikka o'tkazish tamoyili, modellashtirish tamoyili, optimallik tamoyili, operatsion-texnologik tamoyili, qayta aloqa tamoyili) ni ajratadilar. eratsion-texnologik tamoyili, qayta aloqa tamoyili) ni ajratadilar¹⁴. Ta'lim sohasida akmeologik yondashuvni qo'llashning asosiy maqsadi — pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining hozirgi darajasini yuqori, optimal darajaga ko'tarishdan iborat. "Ideal-mukammallik" sari bo'lgan bu yo'l doimiy harakat jarayonida pedagog rivojlanishining real xususiyatlarini takomillashtirishning optimal modeliga tayangan holda amalga oshiriladi. Pedagog rivojlanishning reproduktiv usullari o'rtaida tanlov qilish orqali nafaqat o'zini anglaydi, balki u o'zini sifat jihatidan o'zgartiradi, psixologik to'siqlarni yengadi, hayotiy maqsadlarini qayta ko'rib chiqadi, akmeologik jihatdan muhim fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatlarini izlaydi, shaxsiy va kasbiy rivojlanishning o'ziga xos trayektoriyasini belgilaydi¹⁵.

Xulosa qilib aytganda, akmeologik kompetentlik — bu mutaxassisning o'z kasbida eng yuqori darajaga erishishi uchun zarur bo'lgan integratsiyalashgan salohiyatdir. Bu esa: mutaxassisning kasbiy "akme"sinani aniqlash va baholashda asosiy yo'l bu kompetentlikni mas'uliyat bilan tatbiq etish va rivojlantirish yo'li hisoblanadi. U — shaxsning aks ettirilgan yuksalishi, bilim va motiving, ijodiy potentsialining birligi bo'lib, kasbiy cho'qqilarga yetishning ishonchli yo'li hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yo'ldasheva.D.(2023).Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogic usullari.1-son. 84-bet
2. 1.Tuychiyeva.I, Mamajonova.G.(2025). Talabalarda akmeologik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari. Ijodkor o'qituvchi, 45-son. 99-100-b
3. 2.Tuychiyeva.I, Mamajonova . G. (2025). Talabalarda akmeologik kompetentlikni rivojlantirish tamoyillari. Новости образования исследование в XXI веке, 795-b
4. 3..Maxmudova, D.X . (2023). Bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning akmeologik texnologiyasi. International Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(12), 716.
5. 4.www.ziyonet.uz

¹⁴ Yo'ldasheva.D.(2023).Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogic usullari.1-son. 84-bet

¹⁵ Yo'ldasheva.D.(2023).Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogic usullari.1-son. 84-bet